

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

ISSN 2191-2704
Oriental Journal of
History, Politics and
Law
2022
VOLUME - 2
DOI:10.37547/supsci-ojhpl

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE SECONDARY SCHOOLS OF THE SOUTHERN REGIONS

Nigora Sharopova

PhD

*University of Economics and Pedagogy
Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Spirituality, mature generation, southern regions of Uzbekistan, Kashkadarya, Surkhandarya region, school, creative center, students.

Received: 28.10.24

Accepted: 30.10.24

Published: 01.11.24

Abstract: During the years of independence, cultural and educational events were one of the important issues in the focus of attention of the state. The scope of the event serving the spiritual development of student youth has expanded. The issue of spirituality was considered as a force that makes a person spiritually pure, strong in his inner world, strong will, and integral faith.

JANUBIY VILOYATLAR UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLAR

Nigora Sharopova

PhD

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, barkamol avlod, O'zbekiston janubiy viloyatlari, Qashqadaryo, Surxondaryo, ko'rik-tanlovlar, muktab, ijodiyot markazi, o'quvchilar.

Annotatsiya: Mustaqillik yillarda madaniy-ma'rifiy tadbirlar davlatning diqqat markazida turgan muhim masalalar qatoridan joy oldi. O'quvchi yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib yetishib chiqishiga xizmat qiladigan tadbir ko'lami kengaytirildi. Ma'naviyat masalasiga insonni ruhan poklanish, ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan kuch sifatida qaraldi.

ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ МЕРОПРИЯТИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ ЮЖНЫХ РЕГИОНОВ

Нигора Шаропова

PhD

*Университет экономики и педагогики
Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Духовность, зрелое поколение, южные регионы Узбекистана, Кашкадарья, Сурхандарьинская область, школа, творческий центр, ученики.

Аннотация: В годы независимости культурно-просветительские мероприятия были одним из важных вопросов, находящихся в центре внимания государства. Расширилась сфера проведения мероприятия, служащего духовному развитию студенческой молодежи. Вопрос духовности рассматривался как сила, делающая человека духовно чистым, сильным его внутренний мир, сильной волей, цельной верой.

Mustaqillik yillarida madaniy-ma'rifiy tadbirlar davlatning diqqat markazida turgan muhim masalalar qatoridan joy oldi. O'quvchi yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib yetishib chiqishiga xizmat qiladigan tadbir ko'lami kengaytirildi. Ma'naviyat masalasiga insonni ruhan poklanish, ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan kuch sifatida qaraldi.

Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini mukammal rivojlantirish uchun ajodolarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat manbalarini chuqur o'rganish, qayta tiklash, targ'ib etish, ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishga oid islohotlar mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirila boshlandi. Ma'naviyatning boyligi kelajak poydevorini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar ma'naviyatini boyitishda xalqimizning asrlar osha asrab va boyitib kelingan boqiy an'analari va qadriyatlarining ham o'ziga xos munosib o'mi mavjud. Jamiyat ma'naviy hayotini shakllantirishda ta'lim muassasalari asosiy rol o'ynadi. Umumta'lim maktablari o'quv mashg'ulotlarida talabalar ongida Ona Vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy meros va tarixga hurmat ruhini shakllantirishga ahamiyat berildi. Ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida O'zbekiston tarixini, madaniy me'rosni, urf-odatlarni targ'ib etish maqsadida xil tadbirlar o'tkazish an'anaga aylandi.

Umumta'lim maktablarida "O'zbekiston – qo'shiqlar bayrami", "Gullar bayrami", "Qushlar bayrami" hamda "Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir", "Turkiston - umumiyluyimiz" insholari ko'rik-tanlovlari, iqtidorli bolalar anjumanı, maktab o'quvchilari sportokiadasi, xalq amaliy san'ati ko'rik tanlovlari muntazam o'tkazib kelindi. O'lkaning qadimiy tarixiy obidalari, qadamjolari, hunarmandchiligiga doir ko'pgina asori-atiqalar jamlangan maktab muzeylari ham faoliyat ko'rsatdi.

Umumta’lim maktablari tajribali o‘qituvchilari tomonidan “Shajarangizni bilasizmi?”, “O’smir va qonun”, “Kimyo alifbosi bayrami”, “Matematika olamiga sayohat” kabi ruknlar ostida ochiq darslar, kechalar, turli anjumanlar o‘tkazish an'anaga aylandi. Respublika miqyosida o‘tkaziladigan “Ma’naviyat va ma’rifat kuni” hamda “Maktablar kuni” tadbirlarida janubiy viloyatlarning ta’lim muassasalarida ham doimiy tadbirlar o‘tkazilib, unda O‘zbekistonda iqtisodiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotdagi yangiliklar hamda keyingi yillarda erishilgan yutuqlar bilan o‘quvchilar tanishtirib borildi. Maktablarda o‘quvchilar bilan birgalikda axloq-dobga, milliy urf-odatlarga, qadriyatlarga oid suhbatlar, kechalar, uchrashuvlar, tarbiyaviy soatlar o‘tkazildi [1, №55.].

Matbuot sahifalarida ham maktab o‘quvchilari ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasiga bag‘ishlangan runklar e’lon qilib borildi. Materiallarning janri turlicha, mazmuni rang-barang bo‘ldi. Ayniqsa, “Navbat o‘quvchiga”, “Iste’dodlarni izlaymiz”, “Yangi tartibdagi o‘quv dargohida nima gap?”, “Mash’allarimiz”, “Dildagi gaplar” va boshqa qator ruknlarda maqolalar e’lon qilindi [2, №52.].

O‘zbekiston janubiy viloyatlari shahar va tumanlari umumta’lim maktablarida ma’naviy tadbirlar doimiy o‘tkazilib, maktablar va ularning pedagog o‘qituvchilari ko‘rik tanlovlarda faol ishtirok etib keldi. Masalan, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi Mirzo Ulug‘bek nomli 95-o‘rta maktab tuman xalq ta’limi bo‘limi o‘tkazgan diagnostik tahlil yakunlariga ko‘ra “Yil maktabi-98” ko‘rik tanloving dastlabki tur g‘olib deb topildi. Maktab jamoasi “Iqtidorli yoshlar ma’naviyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantiramiz” shiori ostida faoliyat yuritdi, ta’lim tizimini ilg‘or uslublar bilan boyitish, ta’lim-tarbiyaning uzviyligiga erishish, yuqori saviyadagi bilimga, huhuqiy madaniyatga ega shaxslarni yetishtirishni o‘zining bosh maqsadi sifatida belgiladi. O‘qituvchilar noan’anaviy, ijodiy darslarni uzlucksiz olib bordi. Natijada 1995-1996 o‘quv yilida o‘tkazilgan Respublika olimpiadasida maktabning iqtidorli o‘quvchisi Nodir Odilov matematika fani bo‘yicha g‘olib deb topildi. U AQShdagi nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan birida tahsil oldi. Shuningdek, maktabning Otabek Qalamboyev va Olmos Xolboyev kabi o‘quvchilari Respublika iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Umid” jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan sinov imtihonlarida muvaffaqiyatli qatnashib, AQSh universitetlariga qabul qilindi [3, №98.].

2000 yil “Sog‘lom avlod yili”ga bag‘ishlab, Respublika ta’lim muassasalarida qator tadbirlar o‘tkazildi. 1 iyun-“Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” munosabati bilan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari ta’lim maskanlarida turli mavzularda tadbirlar tashkil etildi. Masalan, Termiz shahrida “Baxtli kelajak” nomli bolalar bayrami o‘tkazilib, unda Jarqo‘rqon tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 11-sinf o‘quvchisi Veronika Bo‘ronova homiy tashkilotlarning sovg‘alari bilan taqdirlandi [4, 9-10.].

Respublikaning boshqa hududlari qatori Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati xalq ta’limi bo‘limlari huzurida “O‘quvchilar ijodiyoti markazi”, “Yosh texniklar ijodiyot markazi”, “Yosh sayyoohlar markazi” va “Ekologik ta’lim markaz”lari faoliyat ko‘rsatdi. 2008 yil Respublika miqyosida “Ijodkor ixtirochi” va “Yoshlar kamoli-yurt istiqboli” ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilib, unda Surxondaryo viloyati vakillari 1-2 o‘rinlarni egalladi [5, 12-14.].

2006 yil yoshlarni boy madaniy merosimizga, tarixiy an’analaramizga, milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruqida tarbiyalash, bolalar iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida “Bolalar folklor dastalari” kÿrik-tanlovi bosqichlari ýtkazildi. 2005-2006 ýquv yilida Surxondaryo viloyati maktab ýquvchilaridan tashkil topgan yosh doirachilar dastasi Toshkent shaqrida ýtkazilgan “Zarb-2005” tanlovingin Respublika bosqichida faxrli III ýringa sazovor býldi [6, 9-10.].

Mustaqillik yillarida “Yil o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish an’anaga aylandi. Mazkur ko‘rik-tanlovda tuman mакtablari o‘qituvchilari ham faol ishtirok etdi. Masalan, 1993 yil Surxondaryo viloyati Jarqo‘rqon tumani 31-maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi O.Sherdanova, 1994 yilda 7-maktab rus tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Z.Samanova, 1995-1996 yillarda 51-maktabning boshlanqich sinf o‘qituvchisi G.Tursunova, 1998 yilda 14-maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi D.Xolto‘rayeva, 2000-2001 yillarda 27-maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi N.Eshmo‘minova, 2003 yilda 19-maktabning boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi M.Rahmonova, 2004 yilda 7-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi D.Allamuradova, 2005 yilda 2-maktabning fizika fani o‘qituvchisi Z.Bobonova viloyat bosqichida g‘olib bo‘ldi [7, 9-10.].

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari maktab o‘quvchilari Respublika miqyosidagi ko‘rik-tanlovlarning faol ishtirokchisi bo‘ldi. Masalan, 2008-2009 o‘quv yilida Qarshi shahar 8-sonli maktabning 8-sinf o‘quvchisi Sevara Halimova “O‘yla, izla, top！”, 13-sonli maktabning 9-sinf o‘quvchisi Madina Eshonqulova “San’at g‘unchalari” ko‘rik-tanlovingin Respublika bosqichi, 29-sonli maktabning 8-sinf o‘quvchisi Sitora Raimova viloyat bosqichining g‘olibi bo‘ldi [8, 180.].

Maktab o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida ular turli to‘garaklarga jalb etib borildi. Masalan, 2008 yil G‘uzor tumanida 3 ta maktabdan tashqari ta’lim muassasalaridagi 341 ta to‘garakda 3520 nafar o‘quvchi jalb qilinib, shundan o‘quvchilar ijodiyot markazidagi 145 ta to‘garakda 1460 nafar, o‘quvchi-yoshlar texnik ijodiyot markazidagi 128 ta to‘garakda 1380 nafar, yosh sayohatchilar va o‘lkashunoslar markazidagi 68 ta to‘garakda 680 nafar o‘quvchilar har-xil yo‘nalishdagi to‘garaklarga jalb etildi. Tumanda o‘quvchi-yoshlar texnik ijodiyot markazi, o‘quvchilar ijodiyot markazi, yosh sayohatchilar va o‘lkashunoslar markazi faoliyat ko‘rsatdi. Tuman o‘quvchi-yoshlar texnik ijodiyot markazida 128 ta to‘garakda 1380 nafar

o‘quvchilarga 46 nafar pedagoglar kasb-hunar sirlarini o‘rgatdi. To‘garak mashg‘ulotlarining 22 tasi mакtabda, 4 tasi maktabgacha ta’lim muassasalarida, 2 tasi mahallada, 2 tasi markazda tashkil etildi [9, 5-9.].

2008 yil “Ijodkor ixtirochi” ko‘rik-tanlovida 2 nafar o‘quvchi, ya’ni Ermo‘minov Quyosbek va Xudoyberdiyev Sarvar viloyatda 1-o‘rinni egallab Respublika bosqichiga chiqdi. Qo‘yliev Begali viloyatda 1-o‘rinni egallab Respublika tanlovi ishtirokchisi bo‘ldi. Shuningdek, tuman o‘quvchilar ijodiyot markazidagi 145 ta to‘garaklarga 1460 nafar bola jalb etildi. Markaz rahbarlari va xodimlari tomonidan «Sinfdan va mакtabdan tashqari tarbiyaviy ishlар konseptsiyasi»ni amalga oshirishda to‘garak mashg‘ulotlarining o‘rni, «Quroqchilik sirlari», «Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olishda oila, mакtab, mahalla va mакtabdan tashqari ta’lim muassasalari qamkorligi» mavzularida uslubiy tavsiyalar, “Bola xuquqlari kafolatlari jamiyat qayotining ustuvor masalasidir” qamda “Odam savdosi-mudqish jinoyat” mavzulariga baqishlangan seminar kengashlar tashkil etildi.

Kitob tumanidagi 5 ta mакtabdan tashqari ta’lim muassasalarida 211 ta to‘garakda 2350 nafar o‘quvchi jalb qilindi. Shundan o‘quvchilar ijodiyot markazidagi 56 ta to‘garakda 568 nafar, 2 ta o‘quvchi-yoshlar texnik ijodiyot markazlaridagi 79 ta to‘garakda 920 nafar, yosh sayohatchilar va o‘lkashunoslар markazidagi 36 ta to‘garakda 382 nafar va “Bioekosan” o‘quvchilar markazidagi 40 ta to‘garakda 480 nafar o‘quvchilar har-xil yo‘nalishdagi to‘garaklarga jalb etildi [10, 5-9.].

O‘z o‘rnida bu kabi tadbirlar Surxondaryo viloyati umumta’lim mакtablari o‘quvchilar o‘rtasida ham uyuştirildi. Mustaqillik yillarda viloyat o‘quvchilar o‘ o‘rtasida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlар yo‘nalishidagi tadbirlarning sifat va samaradorligi hamda ko‘lami ortib bordi. Yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan “O‘zbekiston-Vatanim mening”, “Siz qonunni bilasizmi?”, “Konstitutsiya-baxtimiz poydevori”, “Kelajak ovozi”, “Yangi avlod” tanlovlарining tuman, viloyat, Respublika bosqichlarida viloyat o‘quvchilar faol ishtirok etdi. Viloyatning turli umumta’lim mакtablарida O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri A.Oripov, xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev, Xalq shoiri Usmon Azim, yozuvchi Erkin A’zam kabi adiblar bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Viloyat umumta’lim mакtablari o‘quvchilar Respublika miqyosidagi ko‘rik-tanlovarda ham faol ishtirok etib bordi.

Umumta’lim mакtablari o‘quvchilar ma’naviy tarbiyasida musiqa san’atining ham o‘ziga xos o‘rni bo‘ldi. Boysun tumanida tashkil etilgan “Quralay” folklor ansamбли 2010 yilda “Yangi avlod” ko‘rik tanloving Respublika bosqichi grantini qo‘lga kiritdi. 10-DMI 8-sinf o‘quvchisi Volodina Veronika 2010 yilda “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi [11, 2-8.].

Surxondaryo viloyati mакtablарida turli ijodiy to‘garaklar tashkil etildi. Masalan, Denov tumanidagi 27-umumta’lim mакtabida faoliyat ko‘rsatgan “Yosh ijodkorlar to‘garagi”da turli

yoshdagi ijodkor o‘quvchilarga adabiyot va san’atning nozik jihatlari to‘g‘risida ta’lim-tarbiya berildi [12, №9.].

2012-2013 o‘quv yilida Qashqadaryo viloyatdagi jami 18 ta BMSM (Bolalar musiqa va san’at maktabi)ni 192 nafar o‘quvchilar tugatib, shundan 103 nafari turli musiqa va san’at yo‘nalishidagi o‘rta maxsus kasb hunar kollejlariga o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qishga kirdi. Bolalar musiqa va san’at maktablarida 2013 yil 21 may kuni Shaxrisabz tumanidagi “Lochin” oromgohida “Vatan, do‘slik va xalqparvarlik uchun!” shiori ostida “Kamalak” bolalar tashkilotining an’anaviy XII-anjumani hamda “Kamalak bilimdonlari” Respublika tanlovi o‘tkazildi. Shuningdek, shu yil 19-23 iyun kunlari Qarshi shahridagi 1-son BMSMDa “Akademik cholg‘ular va estrada ijrochiligi” nomli ko‘rik-tanlovning Respublika bosqichida 7 nafar o‘quvchilar 2-o‘rin, 6 nafar o‘quvchilar 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Yakkabog‘ tumanidagi 18-son BMSMDa 5 ta musiqa yo‘nalishi bo‘yicha “Yagonasan, muqaddas-Vatan!” tanlovi o‘tkazildi. Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Yagonasan, muqaddas-Vatan!” nomli tanlovning Respublika bosqichida Koson tumanidagi 8-son BMSM o‘quvchilari N. Mirzaqulova va O. Nazarovlar 3-o‘rinni egalladi. Bundan tashqari Rossianing Kemirova viloyatida bo‘lib o‘tgan Xalqaro tanlovdan Shaxrisabz tumanidagi 16-son BMSM o‘qituvchisi X. Xalilov estrada xonandaligi bo‘yicha faol ishtirok etib 3-o‘ringa sazovor bo‘ldi [13, 1-13].

Xullas, mustaqillik yillarda umumtalim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarini olib borish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylantirilib, ma’naviyat masalasiga insonni ruhan poklanish, ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymone’tiqodini butun qiladigan kuch sifatida qaraldi. Yoshlar ma’naviy qiyofasini shakllantirishda ta’lim muassasalari asosiy rol o‘ynadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. Rahmatov G. Istiqlol vorislarini tarbiyalaymiz // Qashqadaryo, 1998 yil 8 iyul. - №55.
- [2]. Qiyomov Q. Zizo taratib // Qashqadaryo, 1998 yil 27 iyun. - №52.
- [3]. Abduxamid O. “Ilmdan uluq kuch yo‘q” // Qashqadaryo, 1998 yil 5 dekabr. - №98.
- [4]. Surxondaryo viloyati xalq ta’limi boshqarmasi joriy arxiv. Boshqarmaning 2000 yilgi hisoboti. - B. 9-10.
- [5]. Surxondaryo viloyati xalq ta’limi boshqarmasi joriy arxiv. Boshqarmaning 2008 yilgi hisoboti. - B. 12-14.
- [6]. Surxondaryo viloyati xalq ta’limi boshqarmasi joriy arxiv. Boshqarmaning 2005 yilgi hisoboti. - B. 9-10.
- [7]. Tursunov S., To‘xtayev A. Jarqo‘rqon. - Toshkent: Fan, 2008 yil - B. 180.
- [8]. Kenjayeva D., Hamroyeva M., Tillayev N. va boshq. Yangilanishlar ifodasi // Qashqadaryo, 2009 yil 28 avgust. - №068.

[9]. Qashqadaryo viloyati xalq ta’limi boshqarmasi joriy arxivi materiallari. G‘uzor va Kitob tumanlarida “Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan Davlat talablari”ni bajarilishi haqida ma’lumotnoma. - B. 5-9.

[10]. Qashqadaryo viloyati xalq ta’limi boshqarmasi joriy arxivi materiallari. G‘uzor va Kitob tumanlarida “Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan Davlat talablari”ni bajarilishi haqida ma’lumotnoma. - B. 5-9.

[11]. Qashqadaryo viloyati xalq ta’limi boshqarmasi joriy arxivi. Boshqarmaning 2010 yilgi hisoboti. B. 2-8.

[12]. Turdiyev T. Maktabda “Ijodkorlar” to‘garagi // Termiz oqshomi, 2013 yil 2 mart. - №9.

[13]. Qashqadaryo viloyati xalq ta’limi boshqarmasi joriy arxivi. Viloyat xalq ta’limi boshqarmasi tizimida 2013 yilda amalga oshirilgan ishlar hisoboti. - B. 1-13.